

madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur model asosida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlar o'quvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, tolerantlik pozitsiyasi, etnomadaniy identifikatsiya va ijtimoiy-emotsional muvozanatning shakllanishiga ko'maklashadi. Milliy musiqa vositalari orqali yoshlar ongida ko'p madaniyatli ijtimoiy muhitga nisbatan ochiqlik, o'zaro hurmat, empatik idrok va madaniy integratsiyaga tayyorlik kabi barqaror psixopedagogik holatlar mustahkamlanadi. Tadqiqotda o'smirlarda interkultural kompetensiya komponentlari – tolerantlik, empatiya va madaniy dialog salohiyati – pre-test va post-test natijalari juft namunali t-test yordamida taqqoslandi: tolerantlik o'rtacha $3,2 \pm 0,5$ dan $4,1 \pm 0,4$ gacha oshib ($t(23)=8,76$; $p<0,001$; Cohen's $d=1,85$), empatiya $2,8 \pm 0,6$ dan $3,7 \pm 0,5$ gacha ko'tarilib ($t(23)=7,45$; $p<0,001$; $d=1,52$), madaniy dialog salohiyati esa $2,9 \pm 0,5$ dan $3,8 \pm 0,4$ gacha yaxshilandi ($t(23)=8,12$; $p<0,001$; $d=1,67$). Non-parametrik Wilcoxon signed-rank testi ham barcha ko'rsatkichlarda $Z>3,6$ ($p<0,001$) natijalarini tasdiqladi, bu interkultural pedagogik modelning o'smirlarning ijtimoiy-emotsional va madaniy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Natijada, xalq musiqasi asosida boyitilgan mazmunli

pedagogik yondashuvlar orqali o'smirlarning fuqarolik ongini shakllantirish va madaniy xilma-xillikni qadrlashga yo'naltirilgan kompetensiyalar rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xalq musiqa ijodiyoti asosida o'smirlarda millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirish, aksiologik yondashuv va sotsiokultural integratsiya asosida samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlar tolerantlik kompetensiyasini shakllantirishda, madaniyatlararo kommunikativ salohiyatni rivojlantirishda muhim didaktik resurs bo'lib xizmat qiladi. Taklif etamizki, umumta'lim maktablarida musiqa darslarida xalq musiqa ijodiyoti elementlarini integratsiyalovchi modul va o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarni etnopedagogika hamda interkultural yondashuv bo'yicha maxsus malaka oshirish treninglari orqali tayyorlash, multimodal interaktiv dars materiallari va xalq musiqa namunalari asosidagi onlayn pedagogik platformalar yaratish, xalq musiqa ijodiyoti ta'sir mexanizmlarini fenomenologik kuzatuv va eksperiment metodlari yordamida chuqur o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish va mahalliy hokimiyat hamda Ta'lim vazirligi darajasida milliy madaniyatni pedagogik integratsiyalash bo'yicha strategik dasturlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish muhimdir.

Adabiyotlar

1. Тўракулов Н., Абдуллаева А. Ўспиринг мусика тарбиясининг аксиологик асослари. – Тошкент: 2020.
2. Халилов И.Ф. Миллий маданият ва ёшлар онгида интеркультура ёндашув. – Тошкент: 2021.
3. Барышева С.Н, Лутцева Е.А. Музыкальная педагогика как средство формирования межкультурной толерантности. – Москва: 2015.
4. Лобанова Н.И. Формирование толерантности средствами музыкального искусства. // «Педагогика и искусство», 2019, №2. – С. 42-47.
5. Erickson E.H., Hofstede G. Identity, Youth and Crisis. – New York: W.W.Norton, 2016.
6. Banks J.A. Cultural diversity and education: Foundations, curriculum, and teaching. – Boston: «Pearson Education», 2006.

REZYUME. Maqolada xalq musiqa ijodiyoti asosida o'smirlar ongida millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik tamoyillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalq an'alarining ijtimoiy tafakkur va tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются педагогические принципы формирования культуры межнационального согласия в сознании подростков на основе народной музыки, а также ставится задача определить роль народных традиций в формировании социального мышления и навыков толерантности.

SUMMARY. The article examines the pedagogical principles of developing a culture of interethnic harmony in the minds of adolescents based on folk music, and also sets the task of determining the role of folk traditions in developing social thinking and tolerance skills.

O'QUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH ZARURATI

I.Ibodullayeva – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: muloqot, mustaqil fikr, tanqidiy tahlil, madaniyat, qadriyat, aksiologik yondashuv, axloqiy me'yor, kasbiy madaniyat, intellektual sifat.

Ключевые слова: общение, независимое мышление, критический анализ, культура, ценности, аксиологический подход, нравственные нормы, профессиональная культура, интеллектуальные качества

Key words: communication, independent thinking, critical analysis, culture, values, axiological approach, moral norms, professional culture, intellectual qualities.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kun pedagogikasining eng asosiy vazifasi shaxsning o'zligini anglashi va shaxsiy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Buning uchun esa, albatta, har bir inson o'z ota bobolarining o'tmishi, shakllanish tarixi, qadriyatlaridan xabardor bo'lishi joizdir. Bu orqali insonda o'tmishdagi voqealarni to'g'ri baholay olish, kelajak uchun yangi g'oyalar yaratish, yangi bilimlar egallash va, albatta, turli vaziyatlarga tanqidiy yondasha

olish ko'nikmasi shakllanadi. “Zero, qadriyat – bu shaxsning yoki jamiyatning hayotida muhim va ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy, madaniy va estetik normalar va tushunchalardir” [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Falsafashunos olim Qiyomiddin Nazarov ilmiy faoliyati davomida aksiologiya hamda ta'limda aksiologik yondashuvlar xususida juda ko'p izlanishlar olib borgan. Olim o'zining bir qator

asarlarida mustaqillikka erishishimizdan oldingi va mustaqillikdan keyingi yillarda qadriyat tushunchasini o'zaro qiyoslagan. Aynan mustaqillik yillaridan boshlab "Qadriyatlar, ularning asosiy shakllari va xususiyatlarini tahlil va tatbiq qilish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi", – deb takidlaydi olim o'zining "Qadriyatlar falsafasi" asarida [2]. Bugungi kunga kelib bu mavzudagi izlanishlar, ilm fandagi yangiliklar, tadqiqot ishlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalari aksilogiyaning inson tarbiyasi, uning jamiyatdagi o'rnini topishi uchun naqadar muhim ekanligini isbotladi. Ularda aksiologiya va unga oid bo'lgan falsafiy qarashlarning ilk namunalari Avesto, qadimgi sharq va g'arb olimlarining inson kamoloti xususidagi fikrlari va inson tarbiyasida qadriyatlarining naqadar ustuvor ekanligi misollar bilan keltirib o'tilgan.

Muhokama. "O'tgan asrning 60-yillarida pedagogikada bir qator tushunchalar, jumladan madaniy dialog, birgalikdagi hamkorlik, shaxsga hurmat, shaxsning huquqlari kabi tushunchalar amaliy ta'limni inkor etmagan holda vujudga kela boshladi. Ular orasidagi aloqa shundaki, ta'limning klassik modeli zamonaviy ishlab chiqarish talablaridan kelib chiqqan bir paytda, falsafiy-pedagogik g'oyalarda imkoniyat yuzaga chiqadi. Bu shuni anglatadiki, pedagogikaning yangi metodologiyasi an'anaviy ta'lim jarayonlarining intellektual qayta ishlangan va bugungi kun talablariga moslashtirilgan namunasidir" [3].

Zamonaviy pedagogika insonni uning o'ziga xos dunyoqarashi bilan birga "tushunish"ga, ya'ni shaxsning ichki dunyosi va individualligini e'tibor markaziga qo'yishga qaratilgan. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik amaliyotning asosiy tendensiyasiga aylandi va insonparvarlik an'analari shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Inson hayoti doimiy ravishda voqealarni baholaydigan, maqsadlar qo'yadigan, izlanishlar olib boradigan, xulosalar chiqaradigan va o'z dunyoqarashini shakllantiradigan jarayondir. Bu jarayonda uning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati amaliy va nazariy-abstrakt (bilish) darajalarida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogika metodologiyasi ta'lim falsafasiga yangicha qarashni taklif etadi: haqiqiy insonparvarlik, doimiy yangilanish va pedagogik bilimlar tizimi. Bu metodologiya fanlar, jumladan, pedagogikaning asosiy vazifasi insonni bilish, muloqot va ijod subyekti sifatida qarash ekanligini ta'kidlaydi.

"Pedagogik bilimlar, shuningdek, ilmiy bilimlar singari, nafaqat ijodkorlikni shakllantirishga, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga ham xizmat qiladi" [4]. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'lovchi halqa esa aksiologik yoki qadriyatlarga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv insoniy qadriyatlarni, axloqiy me'yorlarni va ma'naviy tamoyillarni ta'lim jarayoniga integratsiyalashni nazarda tutadi.

Bu jarayonda, albatta, ta'lim beruvchi muhim qarorlarni qabul qiluvchi shaxs hisoblanadi. O'qituvchi ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning o'quvchilar bilan muloqotida, ijodiy faoliyatida, o'quvchi shaxsining shakllanishida sezilarli o'rin egallaydi. "V.A.Slastyoning bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyati aynan pedagogik faoliyatga oid bo'lgan qadriyatlarining interiorizatsiyasida namoyon bo'ladi", – degan fikrlarni ilgari surgan [5]. Bundan tashqari Olim pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasniflaydi:

1) maqsadli qadriyatlar: Shaxsiy "Men" va kasbiy "Men" tushunchalari yig'indisiga asoslangan bo'lajak pedagoglarning shaxsiy konsepsiyasi. Pedagogik faoliyatini boshlash arafasida turgan yosh mutaxassislar pedagogik faoliyat maqsadini amalga oshirish yo'llarini tanlashda o'zini va o'zgalarni shakllantirish uchun o'z kasbiy strategiyasini tanlab olish jarayonidir.

2) vositali qadriyatlar: bu turkumdagi qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga yetishishda vosita bo'lib xizmat qilib, ular o'z ichiga pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, boshqarish, innovativlik, intuitsiya kabi tushunchalarni qamrab oladi.

3) "munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayonda ishtirok etayotgan shaxslarning o'zaro munosabati, kasbiy pedagogik faoliyatga munosabat.

4) sifat qadriyatlari: shaxsing xulq-atvori, kasbiga bo'lgan muhabbati, faoliyatiga doir xilma xil sifatleri.

5) bilishga oid qadriyatlar: o'quvchilarning bilim olishga, o'rganishga bo'lgan munosabati" [6].

Z.I.Ravkin va N.M.Egamberdiyeva ham pedagogik qadriyatlar tasnifiga oid bo'lgan o'z qarashlarini bildirganlar. Z.I.Ravkin [7] pedagogik qadriyatlarni: ijtimoiy-siyosiy, intellektual, axloqiy, kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarga bo'lgan bo'lsa, N.M.Egamberdiyeva [8] ta'lim oluvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan ikkita katta guruhga: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy – pedagogik guruhlarga tasnif etish taklifini bildirgan.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar – bu turli ijtimoiy tizimlarda faoliyat ko'rsatuvchi va ijtimoiy ongda aks etuvchi qadriyatlarining tavsifi hamda mazmunini ifodalovchi, ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar va an'analarning majmuidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga kelib, o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlarini aks ettiradi, bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yo'nalishi tizimini tashkil etadi va qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi aksiologik "Men" nafaqat kognitiv (bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi, unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyatlarining individual-shaxsiy tizimiga asos bo'lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar o'rin olgan.

Shaxsning erkin shakllanishini ta'minlash ta'limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida ro'y beradi, ta'lim ijtimoiy pedagogik tizim sifatida ta'lim oluvchilarning shaxsiy qiziqishlari, hayotiy maqsadlarini shakllantiruvchi, erkin, individual ta'limni tashkil etish uchun sharoit yaratadi, bu holat zarur darajada ta'lim oluvchilarga bilimlar berishni yo'lga qo'yish bilan ta'minlanadi va bu jarayonda shaxsning individualligi va takrorlanmasligini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas, demak shaxsni, uning shakllanishini hamma bosqichlarida kuzatib borish zarur. "Shaxsning shakllanishi – ta'limning asosiy vazifalaridan biri bo'lib u individual xususiyatlar negizida qaror topadi. Har bir ta'lim oluvchining o'z shakllanishi, shaxsiy yo'lini tanlash huquqini tan olish (o'qishning moslashtirilgan va variativ shakli, metod va vositalari bilan) lozim. O'qitishni individuallashtirish jarayonida ta'lim oluvchilarning

nimaga qobiliyati borligi, qiziqishlari, este'dodlari, qadriyatlarini yo'nalishi va shaxsiy tajribasiga e'tibor qaratish muhim sanaladi. Aynan bugungi kun zamonaviy ta'lim dasturlari o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda kerakli metodlar, vositalar hamda ta'lim turini tashkil etishni maqsad qilgan" [9].

Ta'lim olish jarayoni ta'lim oluvchilarda shaxsning an'anaviy – axloqiy va intellektual sifatlarini rivojlantirish, ularning muloqot madaniyatini shakllantirish, zamonaviy bilim, mahorat va qobiliyatlarni egallashga qaratilgan bo'lib, bu jarayonning asosiy maqsadi va kutilayotgan natijalari ham shaxsning har tomonlama kamol topishiga, jamiyatga foydali a'zo bo'lishiga zamin yaratishdan iborat.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ta'lim oluvchilarda shaxsiy, ijtimoiy va pedagogik qadriyatlar shakllanadi. "Ijtimoiy qadriyatlar ta'limiy dasturlarni yaratish yoki amaldagilarini takomillashtirish, xalqning boy intellektual, ma'naviy-axloqiy merosi, umuminsoniy qadriyatlarini, fan va texnika, texnologiya va madaniyatning ilg'or yutuqlari asosida pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Aynan yangi ijtimoiy qadriyatlar negizida zamonaviy ta'lim (shaxsning ta'limiy qadriyatlarga munosabat bildirishi, kasbiy, ijodiy-ijtimoiy, ma'naviy imkoniyatlarini shakllantirishga qaratilgan "innovatsion" ta'lim turi) qaror topadi [10]. Zamonaviy ta'lim yoki innovatsion ta'limning traditsion ta'lim turidan ustunligi shundaki, unda o'quvchilar erkinlik tamoyili asosida ta'lim oladilar. Ya'ni analitik fikrlay olish, shaxsning o'zini o'zi anglab yetishi, muloqot ko'nikmasi, muhim qarorlarni qabul qila olish ko'nikmasi shakllanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aksiologik yondashuvlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni yaqin yillardan buyon ta'limga tatbiq etilayotgan hodisa bo'lib an'anaviy ta'lim bilan zamonaviy ta'limning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan ta'limiy yo'nalishdir.

Xulosa va takliflar. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar, xususan, mutaxassislik ta'limi tizimining oldiga bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda tub o'zgarishlar qilish, ularning muloqot madaniyatini shakllantirishda xilma-xil yangiliklarni tatbiq etish, zamonaviy pedagogika fanining yutuqlaridan foydalanish kabi talablarni qo'ymoqda, bu esa pedagogik ta'lim tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki Zed avlod vakilli ta'limning asosiy qismini aynan raqamli texnologiyalar vositasida qabul qilishni ma'qul ko'radigan avlodidir. "Axboriy madaniyat" tushunchasi asosida shaxsning axboriy jihatdan shakllanganligining uchta asosiy

darajasi ajratib ko'rsatiladi: umumiy (bazaviy), professional (kasbiy) va yuksak (mazmunli-qadriyatli). Shaxsda axboriy madaniyatning shakllanganligini mazkur darajalari aniq mezonlarni tanlash va shaxsiy shakllanganlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq. O'quvchining muloqot madaniyati deganda tizimdagi kognitiv operatsion va tashkiliy tarkibiy qismlari universallik, axboriy faoliyatning fanlararo aloqadorligi, shuningdek, insonning turli xil faoliyat tizimidagi umumlashgan tavsifini aks ettiruvchi axborot bilan ishlash savodxonligi bilan belgilanadi" [11]. Amaliy tarkibiy qism o'quvchi shaxsining mutaxassislik faoliyatida namoyon bo'luvchi axborot bilan ishlash qobiliyatini, xususan, mutaxassislikka oid axborotlarni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish kabi muhim jihatlarni o'zida mujassam etadi, bu esa bo'lajak mutaxassisning axborot kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning muloqotchanlik ko'nikmalariga ijobiy ta'sir qiladi.

Aksiologik yondashuvlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirish ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni inobatga olishni talab etadi. Bu yondashuv ta'lim oluvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Muloqot madaniyati, o'z navbatida, o'quvchilarning fikr almashish, muammolarni hal qilish va boshqalar bilan samarali aloqalar o'rnatish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. "Bugungi kunda ta'lim sohasida axborot texnologiyalarining joriy etilishi, innovatsion pedagogik metodlar va individual ta'lim berish usullari ushbu g'oyaning amalga oshirishida muhim ahamiyatga ega. O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatlarini oshiradi" [12]. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ta'lim berishga imkon yaratadi. Natijada, bu jarayon ta'lim oluvchilarni faqat bilim bilan emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, empatiya va milliy qadriyatlarni hurmat qilish kabi muhim axloqiy fazilatlar bilan ham ta'minlaydi. Shuningdek, muloqot madaniyatini shakllantirish orqali yosh avlodni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi. Barcha ushbu omillar birgalikda, ta'lim tizimining sifatini oshirish va millatning ertasini yaratadigan ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. Tulenov J.T. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 1998.
2. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi – Toshkent: O'zFMJ, 2004.
3. Скорнякова А.А. Творческая индивидуальность педагога ДОУ и ее роль в образовательном процессе. // Журнал "1 сентября" № 3(34), 2025. Рубрика: Дошкольное образование. – С. 190.
4. Yakubjanova D.B. Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi. Ped. fan. PhD. ...Diss. Avtoref. 2017. 176-b.
5. Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuxamedova D. Pedagogik aksiologiya (o'quv qo'llanma). – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2013.
6. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma). – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2013.
7. Равкин З.И. Стимулирование как педагогический процесс. // Проблемы педагогического стимулирования и методологии исследований истории советской школы. – Ёшлар-Ола: МГПИ, 1972.
8. Эгамбердиева Ф.О. Адабий таълимга илғор педагогик технологияларни татбиқ этиш методикаси (Чўлпон ижоди мисолида). Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2005. 23-б.
9. Умарова Н. Талабаларнинг ўзбекча ёзма нутқини ўстиришда замонавий технологиялардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент: 2007. 146-б.

10. Yoʻldoshova S.N. Muloqotga oʻrgatish treninglari asosida shaxs tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish metodikasi. Magistrlik dissertatsiyasi. – Termiz: 2022. 95-b.

11. Иброхимов С. Нутк маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. – Toshkent: «Фан», 1972.

12. Siddiqov B.S. Aksiologik yondashuv asosida oʻquvchilar dunyoqarashining shakllantirish mazmuni. –Toshkent: Innovative academy “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2023. 2(8), 104-107-b.

REZYUME. Maqolada aksiologik yondashuvlar asosida muloqot madaniyatini shakllantirish taʼlim jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va anʼanalarni inobatga olishni talab etishi, bu yondashuv taʼlim oluvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qilishi, inson hayoti doimiy ravishda voqealarni baholaydigan, maqsadlar qoʻyadigan, izlanishlar olib boradigan, xulosalar chiqaradigan va oʻz dunyoqarashini shakllantiradigan jarayon ekanligi haqida fikrlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье высказываются мнения о том, что формирование культуры общения на основе аксиологических подходов в образовательном процессе требует учета национальных ценностей, обычаев и традиций. Такой подход способствует воспитанию обучающихся в духе патриотизма, служит их личностному и социальному развитию, а также подчеркивается, что жизнь человека — это постоянный процесс оценки событий, постановки целей, поиска, выведения выводов и формирования собственного мировоззрения.

SUMMARY. The article presents the view that the formation of a culture of communication based on axiological approaches in the educational process requires consideration of national values, customs, and traditions. Such an approach contributes to educating students in the spirit of patriotism, supports their personal and social development, and emphasizes that human life is a continuous process of evaluating events, setting goals, conducting research, drawing conclusions, and forming one's own worldview.

BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARINI TARBIYALASHDA MILLIY URF-ODAT VA ANʼANALARNING OʻRNI

A.S.Ismaylov – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori

K.Zeripbaeva – talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: milliylik, urf-odat, qadriyatlar, anʼanalar, tarbiyalash, maʼnaviy meros, avlod.

Ключевые слова: национальный, обычаи, ценности, традиции, воспитание, духовное наследие, поколение.

Key words: national, customs, values, traditions, upbringing, spiritual heritage, generation.

Kirish. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini maʼnaviy jihatdan kamol topishida milliy urf-odat va anʼanalarimizning oʻrini ahamiyatli boʻlib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan gʻoya bilan aytganda «Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot boʻlsa, uning joni va ruhi maʼnaviyatdir. – Biz yangi Oʻzbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli maʼnaviyat» [1]. Ushbu ulugʻvor maqsadlar uchun vazifa etib belgilangan rivojlantirish rejasi, bugungi kunda amaliyotda oʻz isbotini topib bormoqda. Har bir jamiyat taraqqiyoti davomida milliylikni targʻib etib, urf-odat va anʼanalarining davomiylikni taʼminlash, kelajak avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash negizida boshlangʻich sinf oʻquvchilarini Vatanparvarlik ruhida oʻstirish, oilada farzand tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratish, oʻzbek xalqining azaliy qadriyatlariga kiradi. Tarbiyaning asosiy tamoyillari amalga oshiriladigan boʻlsa, iqtisodiy sohaning rivojlanishi yoʻl ochib beradi.

Asosiy qism. Milliy urf-odatlar - har bir millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi hamda rivojlanishiga xizmat qiladigan, ijtimoiy va madaniy hayotida oʻz aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, koʻpchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidolari va koʻnikmalar koʻrinishini anglatadi.

Milliy urf-odatlar xalqimizda oʻzgacha koʻrinishga ega. Bunda alohida eʼtibor qaratish keraki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini tarbiyalash jarayonida milliy urf-odat va anʼanalarimizning oʻrni beqiyosdir. Chunki, maktabga tashlanagan ilk qadamlar tarbiyalash jarayoni oʻz ichiga

qamrab olib, taʼlim muhitida oʻquvchilarini jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan har tomonlama maʼnaviyatli, xalq tili bilan aytganda “tarbiyali inson” ni sogʻlom fikrlaydigan avlod sifatida voyaga yetkazish asosiy vazifalardandir.

Quyida xalqimizning asl urf-odatlaridan keltirilgan namunalar bilan tanishamiz. Inson bolasini tugʻilmasidan turib, ona vujudidaligidayoq axloqiy tarbiyalash, yaʼni, onani moddiy va maʼnaviy jihatdan taʼminlash orqali, bola ona qornidaligida onani asabiylashtirishga sabab boʻladigan narsalardan uzoq tutish bilan bolani turli asab kasalliklaridan asrash. Shuningdek, bola tugʻilganidan keyin, ota-onaning farzand oldidagi majburiyatlarini ado etishi asosiy vazifa hisoblandi. Islomiy nuqtayi nazardan qaraganda, farzand tarbiyasida tarbiyalanuvchi berilgan taʼlim va tarbiyani yaxshi qabul qilsa, bu jarayonda pedagogik jihatdan yondashilib, bolaga muloyimroq munosabatda boʻlishni taqozo etadi. Agar tarbiyalanuvchi oʻz boshimcha, berilgan taʼlim va tarbiyani yaxshi qabul qila olmaydigan boʻlsa, u holda qattiqroq usul bilan tarbiyalash vositasidan foydalaniladi. Oilada yangi tugʻilgan farzandga toʻgʻri va chiroyli ism qoʻyish ota-onaning farzi hisoblanadi. Oilada oʻgʻil bolaga beriladigan tarbiyaga nisbatan qiz bolaga beriladigan tarbiyada biroz muloyimroq boʻlish uqtiriladi. Chunki, qiz bolaning koʻngli nozik boʻladi, shuning uchun qiz bolaga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda boʻlish maqsadga muvofiq. Ushbu fikrlar farzand tarbiyasini “oila+maktab+mahalla” tizimida boshlangʻich sinflardan boshlab yoʻlga qoʻyishni anglatib qolmasdan, bir soʻz bilan aytganda urugʻdan unadigan niholni parvarish qilish kuni kelib meva beradigan daraxtga qiyoslanadi. Yaʼni bola maktabgacha boʻlgan tarbiyalash jarayonida urf-odatlarimizga amal qilingan